



## 2019-yilning yanvar-iyun oylarida QURILISH ISHLARI

### Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi

**690,0** mlrd. so‘m

Yirik qurilish  
tashkilotlari ulushi

**3,0** %

Kichik korxonalar va  
mikrofirmalar ulushi

**82,4** %

Norasmiy sektor ulushi

**14,6** %

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida Sirdaryo viloyatida jami **690,0** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **125,3** % ni tashkil qildi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **20,5** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **115,1** % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari **568,4** mlrd. so‘mni tashkil etib o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **117,4** % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **101,1** mlrd. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **195,7** % ni tashkil qildi.

### Yirik qurilish tashkilotlari

hajmi-20,5 mlrd. so‘m

o‘shish sur‘ati-115,1 %

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar

hajmi-568,4 mlrd. so‘m


o‘shish sur‘ati-117,4 %

### Norasmiy sektor

hajmi-101,1 mlrd. so‘m

o‘shish sur‘ati-195,7 %

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 73,1 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 4,1 % bandga ko'paydi.




Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 16,5 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,1 % bandga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 10,4 % to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,0 % ga kamaydi.




**Qurilish ishlarining faoliyat turlari  
bo'yicha tarkibi**  
(jamiga nisbatan % da)



2019-yil  
yanvar-iyun

- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilish obektlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari




2018-yil  
yanvar-iyun

**Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlar tarkibi**  
(mlrd. so'm)

	Jami qurilish ishlari	shu jumladan, qurilish ishlari tarkibi bo'yicha		
		yirik qurilish tashkilotlari	kichik korxonalar va mikrofirmalar	norasmiy sektor
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>690,0</b>	<b>20,5</b>	<b>568,4</b>	<b>101,1</b>
<i>shaharlar</i>				
Guliston	252,6	5,6	211,3	35,7
Shirin	28,2	1,0	26,0	1,2
Yangiyer	58,9	1,0	51,0	6,9
<i>tumanlar</i>				
Boyovut	50,3	0,2	42,4	7,7
Guliston	22,6	-	17,1	5,5
Mirzaobod	51,8	2,4	41,5	7,9
Oqoltin	49,1	3,0	41,4	4,7
Sardoba	15,3	-	9,7	5,6
Sayxunobod	32,4	1,0	27,0	4,4
Sirdaryo	91,8	0,1	73,8	17,9
Xovos	37,0	6,2	27,2	3,6

## Hududlarda qurilish ishlarining o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




Viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi Guliston shahriga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish ishlarining o'sish sur'ati 122,3 % ni, Yangiyer shahrida 123,3 % ni, Sirdaryo tumanida 138,7 % ni, Boyovut tumanida 126,5 % ni, Mirzaobod tumanida 125,1 % ni, Oqoltin tumanida 128,8 % ni tashkil qildi.

Qurilish ishlarining hududlar kesimida yuqori o'sish sur'ati Xovos tumanida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 140,9 % ni tashkil qildi.



## Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari (jamiga nisbatan % da)



✦ Yirik qurilish tashkilotlari ✦ Kichik korxonalar va mikrofirmalar ✦ Norasmiy sektor

Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 82,4 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 117,4 % ni tashkil qildi.


Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan jami qurilish ishlaridagi ulushi 3,0 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 115,1 % ni tashkil qildi.

Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 14,6 % tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 195,7 % ni tashkil qildi.




## Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari (jamiga nisbatan % da)

2018-yil yanvar-iyun



2019-yil yanvar-iyun



■ Davlat mulkchilik shakli

■ Nodavlat mulkchilik shakli


Davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan 42,3 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 6,1 % ni tashkil qildi va 2018-yil yanvar-iyuniga nisbatan 0,5 % bandga koʻpaydi.

Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan 647,7 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 93,9 % ni (2018-yil yanvar-iyuniga nisbatan 0,5 % bandga kamayish) tashkil qildi.




## Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)



Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilagan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Guliston shahriga 36,6 % ga to'g'ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sirdaryo tumaniga 13,3 %, Yangiyer shahri 8,5 % ga, Mirzaobod tumanida 7,5 % va Boyovut tumaniga 7,3 % dan to'g'ri keldi.



Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi

Aloqa telefoni: (67) 225-02-37  
(71) 230-86-27